O’ZBEKISTONDA BALIQCHILIK SOHASIDA TABIIY SUV HAVZALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Muhammadjonova Gulasal Muzaffar qizi

Namangan davlat universiteti

Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

Muhammadjonnovago07@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy suv havzalaridan foydalanishdagi prinsiplar, ularning ekologik-huquqiy jihatdan ahaniyati yoritiladi. Bu borada baliqchilik sohasi misol qilib olinib, tabiiy suv havzalaridan foydalanish amaliyoti yoziladi.

Kalit so’zlar. „O’zbekbaliqsanoat“ uyushmasi, Aydar-Arnasoy ko’llar tizimi, tabiiy suv havzalari, su`niy suv havzalari, kollektor-drenaj tarmoqlari.

O’zbekison Respublikasi o’zining geografik joylashuviga ko’ra kontinental iqlim sharoitida joylashgan bo’lib, baliqchilik tarmog’i asosan ichki suv havzalariga tayanadi. Mamlakatning tabiiy suv resurslari qariyb 1mln gektar maydonni egallaydi, shundan 800ming gektardan ortig’i baliqchilik uchun yaroqli bo’lgan tabiiy ko’llar va suv omborlaridir. Ushbu havzalar asosan „O’zbekbaliqsanoat“ uyushmasi va Ekologiya vazirligi nazorati ostida iqtisodiy muomalaga kiritilgan.

Tahlillarga ko’ra, tabiiy havzalardan foydalanish samaradorligi ko’p jihatdan ularning gidrologik rejimiga bog’liq. Masalan, Aydar-Arnasoy ko’llar tizimi

mamlakatdagi jami tabiiy baliq ovlash hajmining qariyb 45-50 %ini ta‘minlaydi1. Biro, so’nggi o’n yillikda shu havzalarga suv quyilishi hajmi 30%ga kamaygan, bu esa baliqlarning tabiiy ko’payishiga (nerest) salbiy ta’sir o’rsatmoqda. Shu sababli, davlat ijarachilar zimmasiga har yili havzani sun’iy baliqlantirish majburiyatini yuklamoqda2.

Prezidentimiz tomonidan 2020-yil baliqchilik qo`llab quvvatlash bo`yicha qaror imzolandi.Respublikamizda baliqchilik tarmoqlarini qo`llab-quvvatlash, baliqchillik va baliq ovlash xo`jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda intensiv texnologiyalarning keng joiy etilishini ta`minlash maqsad qilingan.

Belgilashicha:

2020-yildan boshlab sun`iy suv havzalarida baliq yetishtiradigon baliqchilik xo`jaliklarida suv resurslaridan foydalanish uchun soliq suv obyektidan olingan va qaytarib chiqarilgan suv hajmi o`rtasidagi farqidan kelib chiqib, qishloq xo`jaligi yerlarini sug`orish uchun belgilangan stavkalarda hisoblanadi.

Baliqchilik sohasida suv havzalaridan foydalanish bu nafaqat baliq yetishtirish, balki suv resurslarini samarali boshqarish, eklogik muvozanatni saqlash va intensiv texnologiyalarni joriy etishni o`z ichiga olgan murakkab jarayondir.

Baliqchilik suv havzalari ikki asosiy turga bo`linadi:

1 “O’zbekbaliqsanoat” uyushmasining 2023-yil yakunlari bo’yicha tahliliy ma’lumotnomasi.

2 Karimov B. “Inland Fisheries of Uzbekistan: Status and Challenges”, FAO Fisheries Technical Paper, 2021.

Tabiiy suv havzalari : ko`llar,daryolar va suv omborlari. Bular asosan sanoat usulida baliq yetishtirish va ovlash uchun ishlatiladi.

**Su`niy suv havzalari:** hovuzlar, betonlangan basseynlar va qafas xo`jaliklari. Ular intensiv usulda baliq yetishtirish uchun quriladi.

Zamonaviy baliqchilikda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun yangi texnalogiyalar qo`llanilmoqda. Ular Yopiq suv aylanish tizimi (RAS) suvni qayta tozalash, qayta ishlatish orqali kam miqdordagi suv bilan ko`p miqdorda baliq yetishtirish imkonini beradi. **Sadok xo`jaliklari:** tabiiy suv omborlarida maxsus kataklarida baliq boqish. Bu usul suv resursidan maksimal foydalanishiga yordam beradi. **Ikkilamchi suv manbalaridan foydalanish:** sug`orish kanallari va drenaj suvlaridan baliq yetishtirishda unumli foydalanish amaliyoti kengaymoqda.

Amaliyotda tabiiy suv havzalaridan foydalanishning asosiy yo’nalishlaridan biri – bu baliq zaxiralarini tabiiy ravishda ko’paytirish va ularni sun’iy ravishda boyitish hisoblanadi. Bunda baliqchilik xo’jaliklari tomonidan inkubatsiya yo’li bilan yetishtirilgan baliq chovoqlari (masalan, karp, oq amur, tolstolob) daryolar va ko’llarga qo’yib yuboriladi. Bu esa baliq resurslarining tiklanishi va barqaror saqlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tabiiy suv havzalarida sanoat baliqchiligi ham amalga oshiriladi. Baliqchilar maxsus ruxsatnomalar asosida baliq ovlash bilan shug’ullanadi. Bu jarayonda ov kvotalari, mavsumiy cheklovlar va baliq turlariga qo’yilgan talablar muhim ahamiyatga ega. Masalan, ayrim baliq turlarini urug‘ tashlash davrida ovlash taqiqlanadi.

Tabiiy suv havzalaridan foydalanishda ijaraga berish tizimi ham keng qo’llaniladi. Davlat tomonidan ayrim suv havzalari yoki ularning uchastkalari baliqchilik xo’jaliklariga ijaraga beriladi. Ijara olgan subyektlar ushbu hududda

baliq yetishtirihs, muhofaza qilish va ko’paytirish majburiyatini oladi. Shu bilan birga, ular suv havzasining ekologik holatini saqlash, noqonuniy ovlashga qarshi kurashish choralarini ham ko’ruishi lozim.

Bundan tashqari, tabiiy suv havzalarida rekreatsion (havaskorlik) baliq ovlash ham yo’lga qo’yilgan. Aholi uchun maxsus ajratilgan hududlarda baliq ovlashga ruxsat beriladi, biroq bunda ham qonunchilikda belgilangan qoidalarga amal qilish talab etiladi.

O’zbekistonda baliqchilik sohasini tartibga solishda „Baliqchilik to’g’risida“gi Qonun, suv va ekologiyaga oid normativ-huquqiy hujjatlar muhim o’rin tutadi. Ushbu hujjatlar tabiiy suv havzalaridan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash va baliq resurslarini muhofaza qilishni ta’minlashga qaratilgan.

Umuman olganda, O’zbekistonda tabiiy suv havzalaridan foydalanish amaliyoti baliq resurslaridan samarali foydalanish bilan birga, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish tamoyillariga asoslanadi.

O‘zbekistonning turli mintaqalarida tabiiy suv havzalaridan foydalanish amaliyoti iqlim va suv resurslarining joylashuviga qarab farq qiladi.

- Janubiy hududlar (Qashqadaryo va Surxondaryo): Bu hududlarda suv omborlaridan (masalan, Tallimarjon va To‘palang) foydalanishda asosan issiqliksevar baliq turlari (tilyapiya, afrika laqqasi) yetishtirishga e’tibor qaratilmoqda. Amaliyotda bu havzalarda suv haroratining yuqoriligi sababli baliqlarning o‘sish sur’ati boshqa hududlarga nisbatan 20-30% ga yuqori.
- Xorazm va Qoraqalpog‘iston: Bu yerda amaliyot asosan kollektor-drenaj tarmoqlari va sho‘rlangan ko‘llarda baliq ovlashga tayanadi. Sho‘rlangan suvlarda yashashga moslashgan baliq turlarini (masalan, sudak va vobla)

ko’paytirishning huquqiy va texnologik mexanizmlari amaliyotga keng joriy etilmoqda.

Amaliyotda tabiiy havzalardan foydalanishning eng og‘riqli nuqtasi — ovlangan baliqning real hajmini hisobga olishdir. Shu maqsadda:

- Elektron ruxsatnomalar: Baliq ovlash kvotalarini taqsimlashda inson omilini kamaytirish uchun "Yagona darcha" orqali elektron murojaat tizimi yo‘lga qo‘yildi.
- GPS-monitoring: Yirik ijarachilar o‘zlariga tegishli qayiq va kemalarga GPS moslamalarini o‘rnatish orqali ov hududlari chegarasiga rioya etilishini nazorat qilmoqdalar. Bu amaliyot brakonyerlikka qarshi kurashda eng samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda tabiiy suv havzalaridan foydalanish amaliyoti ekstensiv (oddiy ovlash) usuldan intensiv (sadok, klaster) usulga o‘tish bosqichida turibdi. Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va suvdan foydalanish solig‘ining kamaytirilishi tadbirkorlarning ushbu resurslarga sarmoya kiritish ishtiyoqini oshirmoqda. Kelgusida suv resurslarini boshqarishda baliqchilik sohasining ustuvorligini oshirish tarmoq barqarorligining garovi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, 2023.
2. “O’zbekbaliqsanoat” uyushmasining 2023-yil yakunlari bo’yicha tahliliy ma’lumotnomasi.
3. Karimov B. “Inland Fisheries of Uzbekistan: Status and Challenges”, FAO Fisheries Technical Paper, 2021.
4. www.lex.uz
5. www.arxiv.uz